# 2020- yil yanvar-may oylari uchun Buxoro viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-may oylarida Buxoro viloyatida jami **1813,6** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati 2019- yilning yanvar–may oylariga nisbatan **94,6 %** ni tashkil etdi.




## 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo’yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo`yicha bo`linadi.




***Ma‘lumot uchun**: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*



## Qurilish ishlari bo’yicha faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




2020- yil 1- iyun holatiga ko’ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2560 tani tashkil etib, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 432 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko’payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o’tgan yilga nisbatan **111,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **62,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **127,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,6 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **142,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **29,1 %**) o’sishidir.

## Buxoro viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

| | holatiga ko‘ra: | | O‘tgan yilga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.06.2019- yil | 01.06.2020- yil | |
| Buxoro viloyati | 2128 | 2560 | 120,3 |
| Buxoro sh. | 705 | 828 | 117,4 |
| Kogon sh. | 72 | 98 | 136,1 |
| tumanlar: | | | |
| Olot | 55 | 60 | 109,1 |
| Buxoro | 166 | 210 | 126,5 |
| Vobkent | 93 | 110 | 118,3 |
| G'ijduvon | 151 | 187 | 123,8 |
| Kogon | 103 | 133 | 129,1 |
| Qorako‘l | 63 | 91 | 144,4 |
| Qorovulbozor | 29 | 42 | 144,8 |
| Peshko‘ | 112 | 139 | 124,1 |
| Romitan | 191 | 211 | 110,5 |
| Jondor | 195 | 220 | 112,8 |
| Shofirkon | 193 | 231 | 119,7 |



## Buxoro viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni
## 01.06.2020- yil holatiga ko’ra (*ulushi %* da)




***Ma‘lumot uchun***: *viloyatda soni bo‘yicha eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan qurilish korxonalari Buxoro shahrida (32,3 %), Shofirkon (9,0 %) va Jondor (8,6 %) tumanrida qayd etildi.*

Joriy yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **240,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **91,4 %** ni tashkil qilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **0,4 %** punktga kamayib, **13,3 %** ni tashkil etdi.



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da




***Ma'lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***85,0*** *% i yoki 2019- yilning yanvar-may oyiga nisbatan* ***102,9 %),*** *Olot tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***30,7*** *% i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan* ***90,9*** *%), va Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***32,5 %*** *i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan* ***314,8*** *marta ko'p ) ga to'g'ri keldi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan yuqoriligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **60,6 %** i to‘g‘ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylari ko‘rsatkichiga nisbatan o‘zgarish bo‘lmagan. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **94,1 %** ni tashkil etgan holda **1 099,4** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to’g’ri kelgan qurilish ishlari **473,5** mlrd. so’m miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **97,3** % ni tashkil qilgan bo’lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko’rsatkich darajasidan 0,4 % punktga ko’payib, 26,1 % ni tashkil etdi.*

## Norasmiy sektor hissasiga to’g’ri kelgan qurilish ishlari

**o‘sish sur‘ati % da, mlrd. so’m**







Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **74,0** mlrd. so‘m yoki 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **93,5 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 739,6** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati **94,6 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **4,1 %** va **95,9 %** ni tashkil etdi.

## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





## Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so’m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk * | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi % da | mlrd. so‘m | ulushi % da |
| **Buxoro viloyati** | 1813,6 | 74,0 | 100 | 1739,6 | 100,0 |
| **Buxoro sh.** | 573,3 | 15,6 | 21,1 | 557,7 | 32,0 |
| **Kogon sh.** | 102,8 | 2,7 | 3,6 | 100,1 | 5,7 |
| **tumanlar:** | | | | | |
| **Olot** | 125,9 | 8,0 | 10,8 | 117,9 | 6,8 |
| **Buxoro** | 130,3 | 5,4 | 7,3 | 124,9 | 7,2 |
| **Vobkent** | 49,4 | 3,2 | 4,3 | 46,2 | 2,6 |
| **G'ijduvon** | 155,1 | 4,5 | 6,1 | 150,6 | 8,7 |
| **Kogon** | 77,6 | 0,0 | 0,0 | 77,6 | 4,5 |
| **Qorako‘l** | 78,7 | 11,6 | 15,7 | 67,1 | 3,9 |
| **Qorovulbozor** | 110,8 | 5,6 | 7,6 | 105,2 | 6,0 |
| **Peshko‘** | 98,7 | 3,3 | 4,5 | 95,4 | 5,5 |
| **Romitan** | 140,6 | 5,3 | 7,2 | 135,3 | 7,8 |
| **Jondor** | 92,1 | 3,5 | 4,7 | 88,6 | 5,1 |
| **Shofirkon** | 78,3 | 5,3 | 7,1 | 73,0 | 4,2 |

* Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur‘ati, % da | Umumiy hajmga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** | 1813,6 | 94,6 | 100 |
| **Buxoro sh.** | 573,3 | 98,0 | 31,6 |
| **Kogon sh.** | 102,8 | 94,9 | 5,7 |
| **tumanlar:** | | | |
| **Olot** | 125,9 | 98,3 | 6,9 |
| **Buxoro** | 130,3 | 90,6 | 7,2 |
| **Vobkent** | 49,3 | 96,1 | 2,7 |
| **G'ijduvon** | 155,1 | 93,9 | 8,6 |
| **Kogon** | 77,6 | 92,3 | 4,3 |
| **Qorako‘l** | 78,7 | 92,1 | 4,3 |
| **Qorovulbozor** | 110,8 | 96,5 | 6,1 |
| **Peshko‘** | 98,7 | 91,6 | 5,4 |
| **Romitan** | 140,6 | 93,0 | 7,8 |
| **Jondor** | 92,1 | 87,0 | 5,1 |
| **Shofirkon** | 78,4 | 90,1 | 4,3 |

*Hududlar bo’yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda

## Viloiyatning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari,% da

### 2019- yil yanvar-may

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Binolar va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 15,2 | 19,1 | 65,7 |

### 2020- yil yanvar-may

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Binolar va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 16,1 | 14,3 | 69,6 |

***Ma'lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*



# Binolar va inshootlar qurilishi

**ulushi % da**

Binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **5,6 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **2,1 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **3,7 %** punktga ko‘payib, **55,3 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **1,6 %** punktga kamayib, **39,1 %** ni tashkil etdi.





## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

**ulushi % da**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **22,6 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **1,9 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **77,3 %** (**1,9 %** punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,1 %** (o`zgarish bo`lmagan) ni tashkil etdi.





# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**ulushi % da**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **11,5 %** punktga ko'paydi va **37,2 %** ni tashkil etdi. Qolgan **62,8 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **11,5 %** punktga kamaydi.





## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

*mlrd. so’m*

| | Qurilish ishlari hajmi | shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Binolar va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashti-rilgan qurilish ishlari |
| **Buxoro viloyati** | **1813,6** | **1262,1** | **259,1** | **292,4** |
| **Buxoro sh.** | **573,3** | **423,0** | **82,9** | **67,4** |
| **Kogon sh.** | **102,8** | **62,8** | **17,9** | **22,1** |
| **tumanlar:** | | | | |
| **Olot** | **125,9** | **72,3** | **4,6** | **49,0** |
| **Buxoro** | **130,3** | **100,5** | **14,9** | **14,9** |
| **Vobkent** | **49,3** | **37,3** | **7,5** | **4,5** |
| **G'ijduvon** | **155,1** | **130,0** | **8,3** | **16,8** |
| **Kogon** | **77,6** | **18,7** | **29,3** | **29,6** |
| **Qorako‘l** | **78,7** | **62,6** | **11,9** | **4,2** |
| **Qorovulbozor** | **110,8** | **26,6** | **22,4** | **61,8** |
| **Peshko‘** | **98,7** | **86,6** | **9,5** | **2,6** |
| **Romitan** | **140,6** | **111,1** | **22,4** | **7,1** |
| **Jondor** | **92,1** | **81,9** | **7,8** | **2,4** |
| **Shofirkon** | **78,4** | **48,7** | **19,7** | **10,0** |

*Hududlar bo’yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda

## Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari, ulushi % da.







Joriy yilning yanvar-may oylarida bino va inshootlar qurilish ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Jondor tumanida qayd etildi (ushbu hududda bino va inshootlar qurilishi umumiy hajmining 88,9 % i yoki **81,9** mlrd. so'm), shuningdek, Peshko' tumanida (ushbu hududda bino va inshootlar qurilishi umumiy hajmining 87,7 % i yoki **86,6** mlrd. so'm), G'ijduvon tumani ham (ushbu hududda joylashgan bino va inshootlari qurilishining umumiy hajmidan 83,8 % i yoki **130,0** mlrd. so'm), o‘z ulushiga ega.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi, jamiga nisbati, % da**

Joriy yilning yanvar-may oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Kogon tumanida (ushbu hududda fuqarolik obyektlari qurilishi umumiy hajmining 37,8 % i yoki **29,3** mlrd. so‘m), Shofirkon tumani ( ushbu hududda fuqarolik obyektlari qurilishi umumiy hajmining 25,1 % i yoki **19,7** mlrd. so'm), Qorovulbozor tumani (ushbu hududda joylashgan fuqarolik obyektlari qurilishining umumiy hajmidan 20,2 % yoki **22,4** mlrd. so'm) da qayd etildi.




**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, jamiga nisbati, % da**




Joriy yilning yanvar-may oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Qorovulbozor tumanida (ushbu hududda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining 55,8 % i yoki **61,8** mlrd. so‘m), Olot tumani ( ushbu hududda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining 38,9 % i yoki **49,0** mlrd. so'm), Kogon tumani (ushbu hududda joylashgan ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmidan 38,1 % yoki **29,3** mlrd. so'm) da qayd etildi.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

### Eng yuqori hajm
*(mlrd. so'm)*

1. Buxoro sh. 573,3
2. G'ijduvon 155,1
3. Romitan 140,6

### Kichik hajm
*(mlrd. so'm)*

1. Shofirkon 78,4
2. Kogon 77,6
3. Vobkent 49,3

**Buxoro viloyati statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi**

**Telefon raqam: *(65) 223-81-99***